



## ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> May 2021

Accepted: 25<sup>th</sup> May 2021

Online: 30<sup>th</sup> May 2021

## KEY WORDS

Family upbringing, philosopher, idea, family, thought.

## MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021

Ma'qullandi: 25-May 2021

Chop etildi: 30-May 2021

## KALIT SO'ZLAR

Oilada tarbiya, faylasuf, g'oya, oilaviy fikr.

“Bizga tarixdan ma'lumki, qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim”,- degan g'oyani ilgari surgan edilar. Bu g'oya fransuz xayoliy sosialistlari Sen-Simon, Sharl Fure va David Rikardolarning asarlarida keyinchalik rivojlantirildi. Ular o'z fikrlarini farzand

## RELIGIOUS EDUCATION IN THE FAMILY

Ermatova Mehriniso Bekmurodovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Termez State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4898056>

## ABSTRACT

*Changes in people's minds, in their spirituality, do not happen all at once. The spirituality and culture of the people, its true history and originality - is being restored, - said our first president IAKarimov. In order to achieve this task, it is necessary to pay special attention to the creative work of the people and family upbringing. At the heart of family upbringing is the problem of spiritual and moral upbringing of the child.*

## OILADA DINIY TARBIYA

Ermatova Mehriniso Bekmurodovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Termiz davlat universiteti

## ANNOTATSIYA

*Kishilarning ongidagi, ularning ma'naviyatida yuz beradigan o'zgarishlar birdaniga sodir bo'lmaydi. Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi – qayta tiklanayotganligi, - deb aytgandi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, - jamiyatimizni yangilash va taraqqiy yettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda – hal qiluvchi ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir” Bu vazifaga erishish esa xalqning ijodiy yaratuvchanlik mehnatiga oilaviy tarbiyaga alohida e'tibor berish zarur. Oilaviy tarbiya asosida esa bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muammosi yotadi.*

tarbiyasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Shunga ko'ra, bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oyani ilgari surganlar. Ammo Sharq mutaffakkirlari, bola tarbiyasi bilan ota-ona shug'ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor beradilar.



Umuman, oilada bola tarbiyasi masalasi juda qadimdan mutafakkirlarni qiziqtirib kelgan, ular bu masalaga hayotiy faoliyatning muhim bir tomoni sifatida qaraganlar va uni hal etishni o'zlarining vazifasi deb hisoblaganlar.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ta'lim-tarbiya masalalari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berganlar. Zero yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilaydigan, ularni ijobiy mezon bilan qurollantiradigan sifatlar bo'lganligi uchun ham mutafakkirlar bu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar. Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Nosr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn sino, Muhammad Qoshg'oriy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Umar Xayyom, Ahmad Yugnakiy, Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rtaga qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Shuningdek, o'tmishda diniy-tasavvufiy asarlar ham yozildiki, ularda bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari ilgari surilgan bo'lib, ular ma'naviyatimiz tarixida munosib o'rin egallaganlar. Imom al-Buxoriy, Imom al-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Az-Zamaxshariy, Sulaymon Boqirg'oniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro va boshqalar shular jumlasidandir.

Imom G'azoliy rohmatalloh bunday deganlar: "Farzand ota-ona huzuridagi omonatdir. Uning pokiza qalbi nafis gavhardir. Agar unga yaxshilik o'rnatilsa, yaxshilik uzra voyaga etadi, dunyo va oxiratda baxtiyor bo'ladi. Agar yomonlik o'rnatilsa yoki beparvolik qilinsa, baxtsiz

bo'ladi va halok bo'ladi. Uni asrash esa, unga odob berish, keraksiz narsalardan saqlash va go'zal axloq ila tarbiya qilish bilan bo'ladi".

Farzandga risoladagiday tarbiya berish g'oyat ma'suliyatli, murakkab jarayondir. Chunki ota-onaning farzandi oldidagi burchlaridan shundaylari borki, ma'lum bir vaqtda biror ishni qilish bilan yoki mol-mulk sarflash bilan u oxiriga etadi. Ammo tarbiya eng ma'suliyatli va eng uzoq davom etadigan burch hisoblanadi. Ota-onaning farzand nematiga bo'lgan amaliy shukronasi ham ushbu burchni sharaf va sabr bilan ado etishlari tufayli yuzaga chiqadi.

Tarbiyaviy ma'suliyat haqida so'z borar ekan, islom ullomalai farzandga axloqiy, jismoniy, aqliy, nafsiy, ijtimoiy va jinsiy tarbiya berish lozimligini ta'kidlaydilar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach zahmatkash xalqimizning tarixiy xotirasini, qadimgi urf odatlar, an'analari, qadriyatlarini tiklash va ezozlash, muqaddas qadamjolarini asl holiga qaytarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirila boshladi. Muhtaram prizidentimiz; Biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy tashlagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy ug'itlar, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilmoqdamiz" deganlar

Xush biz maktabgacha yoshdagi bolalarga buyuk bobokalanalarimiz va ularning bizga qoldirgan bebaho asarlari bilan qay tarzda tanishtiramiz.

Hadislarda inson erki, ozodligi va unga dahl qilmaslik masalalarining yoritilishiga ham katta ahamiyat berilgan.

Islom ta'limotida har tomonlama yetuk bo'lishi uchun insonning erkin bo'lishi kerakligi borasidagi fikrlar qur'oni Karimda



ham, Hadisu SHarifda ham birdek e'tirof etilgan. Bolajonlarni vatanga bo'lgan muhabbatini oshirish uchun vatanni sevishga o'rgatish, va mustaqillikgacha bo'lgan tarixiy voqealar bilan tanishtirib borish kerak. Har kuni Vatanimiz madhiyasini birgalikda kuylash orqali bolajonlarning vatanga bo'lgan muhabbati ortib boradi.

Hadislarda kishilarning bir-biri bilan do'st, tinch-totuv yashashlari, o'zaro muruvvatli, mehr-shafqatli bo'lishlari kerakligi haqidagi g'oya ham ilgari suriladi. Har bir tashkilotda, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom muhitning yaratilganligi bolajonlarni ma'naviy boy, aqlan yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratiladi.

Har bir ota-ona farzandiga tarbiya -odob berar ekan, eng avvalo, salomlashishni o'rgatadi. Jahonda odobning bu jihatiga e'tibor bermaydigan biror millat yoki xalq yo'q. Bejizga xalqimiz «Gapning bosh-kalom, odob boshi – salom», demagan. Agar biror notanish kishi bilan ko'rishib-tanishmoqchi bo'lsangiz, chiroyli salomingiz bilan o'rtadagi begonasirash va noqulayliklarni barham toptirasiz.

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, ushbu fazilatlar sarasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga g'amxo'rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, do'stlik, oliyjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z aksini

topganki, bularning barchasi Qur'oni Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sha'riy udum va urf-odatlariga amal qilish, ularni o'tkazishga oid xulq-odob qoidalari ham bayon etiladi. Turli marosimlarning o'tkazish tartibi, safar qoidalari, salomatlikni saqlash, salomlashish, muomala madaniyati, bemor kishi holini so'rash odobi, kiyinish qoidalari, yemoq-ichmoq, so'zlashish odobi va hokozolar haqida turli tavsiyalar beriladiki, ular bevosita keyingi davrlarda yaratilgan odob-axloq qoidalari borasidagi risolalarning mazmunini yoritishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Hadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabilar ulug'lansa, isrofgarchilik, ta'magirlik, ochko'zlik. nafs havo hamda shahvoniy hissiyotlarga berilish, baxillik, johillik kabi illatlar qoralanadi.

Hadislarda jamiyat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotining ta'minlanishiga ta'sir etuvchi muammolarga ham jiddiy e'tibor berilgan. Ularning orasida ekologik muammolarga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ana shunday muammolar mohiyatini o'z mazmunida aks ettirgan hadislarda ekin hamda ko'chatlarni o'tkazish, ularni himoya etish, ariq-zovurlar qazish va ularni vaqti-vaqti bilan tozalab turish, suv chiqarish kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga undovchi g'oyalar mujassamlangan. Masalan, tirik jonivorlarni o'ldirmaslik (shariatdan o'ldirishga buyurilgan ilon va chayondan bo'lak), jonivorlarga g'amxo'rlik qilish, ularga ozor bermaslik, inson yashaydigan joyni unga ozor beradigan narsalardan tozalash (227 va 446-hadislar), kishilarga soya beruvchi daraxtlarni kesmaslik, hovli



sahnlarini toza tutish haqidagi hadislar<sup>1</sup> shular jumlasida,

Biz bolajonlarni komil inson bo`lib voyaga etishi uchun, ilk yoshidanaoq milliy urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz va buyuk mutafakkirlarimiz bilan tanishtirib borishimiz lozimdir.

### **Oilada farzand tarbiyasi haqida buyuk mutafakkirlarimiz shunday fikr berib o`tganlar:**

Farzand tarbiyasi haqida Jaloliddin Rumiy hazratlari o`zining "Ichinadi ichindadir" asarida shunday ta`rif beradi "Agar danakni chaqib, mag`zini eksang, unmaydi. Agar qobig`I bilan birga tuproqqa qadasang-chi unish hodisasi yuz beradi". Danak mag`zini ruhu, qobog`ini jism deb olinsa, demak, inson bolasi biron maqsadga erishmoq uchun har ikki asosga suyanish zarur. Aks holda maqsad hosil bo`lmas. Madomiki shunday ekan, odomzod yashash va kelajakka intilish asosida har qanday bir tomonlamalikdan, goh u yon, goh bu yonga og`ib ketishlaridan tiyilib, ana usha oltin o`rdalik boshini tutmog` zarur keladi.

Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig`i – otaning roliga alohida e`tibor beradi. "Agar oilada, - deydi u, - oila boshlig`i tajribasizlik, no`noqlik qilsa, u oila a`zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda undan yomon natijalar kelib chig`ishi mumkin". Bola tarbiyasi yaxshi yo`lga qo`yilsa, oila baxtli bo`ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi. Ota-ona kim bo`lishidan qat`iy nazar bu vazifani mas`uliyat bilan ado etishi lozim. Ibn Sino bola tarbiyasida otaning burchi haqida to`xtalib o`tadi. Eng avvalo, ota farzandi tug`ilgach unga yaxshi ism qo`yishi va tarbiyalashga kirishmog`i lozim. Ayniqsa, bola tarbiyasida ota-onaning yaxshi fazilati, ular o`rtasidagi o`zaro munosabatlar esa

yuksak axloqiylik asosida bo`lishini ta`kidlaydi.

Oila va oilaviy tarbiya borasida XI asrda yashab, ijod etgan mashhur ulug` shoiri mutafakkir va donishmandi Yusuf Xos Xojib o`zining "Qutadg`u bilig" ("Qut ato etgan bilim") nomli asarida keng to`xtalib o`tadi. U o`z davrida va o`zidan oldingi mutafakkirlar o`rtaga surgan barkamol insonni tarbiyalash g`oyasini asosiy maqsad qilib qo`yadi. Insondagi mukammallik esa uning xusni xulqi bilan bog`liq deydi. Husni-xulqining zamirida esa yezgulik yotadi.

Mutafakkir "Qutadg`u bilig" asarida bola tarbiyasi haqida to`xtalib shunda deb yozadi: "Farzand qanchalik bilimli. Aqlli-hushli bo`lsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug` bo`ladi". U bola tarbiyasida otaning mas`uliyatiga alohida e`tibor beradi. "Kimning o`g`il qizi yerka bo`lsa, - deb yozadi u, unga shu kishining o`zi mungli bo`lib yig`laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo`ysa bolada gunoh yo`q, barcha jafo otaning o`zida; o`g`il-qizning xulq-atvori yaramas bo`lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo`ladi. Ota bolalarni nazorat qilib, turli hunarlarni o`rgasa, ular ulg`aygan o`g`il-qizim bor deb sevinadi; o`g`il-qizga hunar va bilim o`rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe`l-atvorlari go`zal bo`lsin" 10-deb ota-onalarga maslahat beradi. Bola asta-sekin hunar o`rganib, hayotdan ta`lim olib bilimdon bo`ladi, chinakam insoniy go`zallika yerishadi. Inson faqat farzandlariga yaxshilik urug`ini sochibgina qolmasdan, bu urug`ni parvarish ham qila bilishi zarur. Bu narsa ular tarbiyasida zohir bo`ladi. Mutafakkir yaxshilik va yezgulik chinakam insonlarning olijanob fazilatidir, degan xulosaga kelar ekan, undan olamda agar yaxshi kishilar bo`lmaganida haqiqiy insoniylik ham bo`lmas edi, degan falsafiy xulosaga keladi.



Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri “Unsurul ma-oliy” Kaykovusning “Qobusnoma” sidir. Bu asar yuqorida to’xtalib o’tgan mutafakkirlarimiz asarlari qatorida Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o’rinni egallaydi va qanchadan qancha avlodlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda o’z hissasini qo’shib kelmoqda.

“Qobusnoma” falsafiy-didaktik asar bo’lib, shaxs shakllanishining barcha tamonlarini o’z ichiga oladi. Uning “Farzand parvarish qilish zikrida” degan bobi bevosita oilada bola tarbiyasiga bag’ishlanadi.

Asarda o’z davri uchun qimmatli bo’lgan va bugungi kun uchun ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan g’oyalar o’rtaga tashlanadi. Uning fikricha, bola tug’ilgandan so’ng jonli mavjudot sifatida fiziologik o’sa boshlaydi. Uning o’sishi jarayonida unda yaxshi va yomon xislatlari zohir bo’ladi. Shunga ko’ra, uning o’sishi parvarishga muhtojdir. Ana shu vazifani ota-ona o’z bo’yniga oladi. “Otalik shartini bajo keltirg’ilki ... adab-hunar va donishni farzandingga o’zingdan meros qilg’il, toki uning haqqin bajo kelturmush bo’lg’aysan”. Ko’rinib turibdiki, Kaykovus yaxshi odob-axloqli, kasb-hunarli va ahli-donish qilib farzandlarni tarbiyalashni ota-onaning burchi deb biladi. Bu fazilatlar ulardan qoladigan meros bo’lish bilan birga, farzandlarni haqqi ham deb ota-onalarning tarbiyachilik mas’uliyatini ko’rsatib beradi.

“Qobusnoma” ota-onalarning qator vazifalari sanab o’tiladi. Ular quyidagilardan iborat: 1) Bolaga yaxshi ot qo’ymoq; 2) Oqil va mehribon yenagaga topshirish; 3) To’y-tamosha qilib, sunnat to’y o’tkazish; 4) O’qish-yozishni o’rgatib, kasb-hunar va ilmi qilish; 5) Harbiylar ahtdan bo’lsa, sipohiylikni o’rgatish.

E’tiborli joyi ana shundaki, Kaykovus bolaga hunar o’rgatganda, uning uchun boshqalar qilishi mumkin bo’lmaydigan hunarlar o’rgatishi lozim deydi. Ana shunday hunarlar yordamida u mushkul vaziyatlardan chiqsa, Shunda bola ham otadan rozi bo’ladi. Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni olib borish lozimligini ta’kidlaydi; “Yosh bola ilm bilan adabni tayoq bilan o’rganur, o’z ixtiyori bilan o’rganmas. Ammo farzand beadab bo’lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o’z qo’ling bilan urmagil, muallimlarning tayog’i bilan qo’rqitg’il. Bolalarga muallimlar adob bersinlar, toki sendan o’g’lingni ko’nglida gina qolmasin”.

Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o’rinni egallaydi. U o’zining qator asarlarida ta’lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g’oya ekanligini o’rtaga surdi. Uning fikricha, jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bilan bog’liqdir, shunga ko’ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan olijanob vazifadir, deydi.

Olim bo’lish oson, Odam bo’lish qiyin.

Alisher Navoiy ota-onalarning yaxshi sifatlarini ulug’laydi. Bunday sifatlarining ularda jamuljam bo’lishi bola tarbiyasida muhim rol o’ynashini ko’rsatib o’tadi. Masalan, uning xotinlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “Yaxshi xotin, deydi Navoiy – oilaning davlati va baxti. Uning oroyishi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. G’husnli bo’lsa – ko’ngil ozig’i, xushmuomala bo’lsa jon ozig’idir. Oqila bo’lsa, ro’zg’orda tartib intizom bo’ladi ... U beandisha, shallaqi bo’lsa, ko’ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo’lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo’r bo’lsa, uy obodligi yo’qoladi, aqlsiz bo’lsa, oila rasvo bo’ladi”.



Alisher Navoiy oiladagi ayrim illatlarni va o'zaro kelishmovchiliklarni bola tarbiyasiga salbiy ta'siri va uning buzulishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar haqida ham yozadi. Shuningdek, yaxshi va yomon xulqlar va ularning kelib chiqish sabablarini ko'rsatib beradi. Bolada paydo bo'ladigan yomon xulqlarni oldi olinmasa, u bora-bora illatga aylanadi. Bu o'rinda uning mashhur baytini keltirmoq kifoyadir.

Kuchuk bilan xo'tikni qancha qilsang tarbiya,

It bo'lur, yeshak bo'lur, bo'lmasalar aslo odami.

Alisher Navoiy ta'kidlashicha, ota-onani hurmat qilish farzandlar "... uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmaing qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod bo'lishini istachang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kunga nur berib turgan birisini oy, birinsini quyosh bil, ular chizgan chiziqdan tashqariga birqadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, "adab" so'zidagi "dol" kabi qomatingni ham qil".

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Yusuf Xos Hojib "Qutadig'u bilig"
- 2.Kaykovus "Qobusnoma"

Oila haqida qayg'urish islom dinida puxta ishlab chiqilgan keng qamrab oluvchi nikoh tizimida namoyon bo'ladi. Oilagacha boshlanadigan bu tizim «Nikoh» bilan mustahkamlanadi va oilaviy munosabatlarda davom etadi. U oilaning har bir a'zosi (ham ota-ona, ham farzand) huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklarini aniq tasvirlab beruvchi oliy tushunchalardan iborat. Oilaviy munosabatlar o'z-o'zidan rivojlanadigan, o'zaro nazorat qilinadigan, rahm-shafqatli va sevgi-muhabbatga to'la bo'lishi kerak. Xudbinlik, g'azab, e'tiborsizlik, begonalik hamda jismoniy va axloqiy tahqirlash kabi xislatlar ularga begona bo'lishi kerak. Oilaga nisbatan islom dinining bunday nuqtai nazari Quronning oilaviy munosabatlarga taalluqli asosiy printsiplaridan kelib chiqadi.

Bejizga buyuk mutaffakirlarimiz "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir"deb ta'rif bermagan.Biz ana shu savobli ish jarayonida ishtirok etar ekanmiz,o'zimiz ham bilimli,ma'rifatli va madaniyatli bo'lishimiz kerak.